



SHIRIN QALAMPIR NAVLARINI TURLI MUDDATLARDA EKIB O'STIRISHNING HOSILDORLIK VA HOSIL SIFATIGA TA'SIRI

X.Xonqulov

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali, qishloq xo'jalik fanlari falsafa
doktori, dotsent

H.Abdisatorov

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali magistranti

Annotatsiya: *Shirin qalampirga bo'lgan talabni to'la qondirish maqsadida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun ushbu ekinni takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish, bunda eng maqbul ekish muddati, o'simlikning oziqlanish maydonini aniqlash, tovarbop va serhosil nav va duragaylarni tanlash borasidagi tadqiqotlar dolzarb bo'lib hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Shirin qalampir, takroriy ekin, serhosil nav, duragaylar, hosildorlik, sabzavot ekinlari.*

Abstract. *In order to fully satisfy the demand for sweet pepper, it is important for agricultural producers to improve the technology of growing this crop as a repeated crop, in which research on the optimal planting period, determination of the plant's feeding area, and the selection of high-quality and high-yielding varieties and hybrids is considered urgent.*

Key words: *Sweet pepper, re-harvest, high-yielding variety, hybrids, productivity, vegetable crops.*

Kirish. Bugungi kunda dunyo bo'yicha eng ommabop va talabgor sabzavot ekinlaridan bo'lgan qalampir yetishtirilayotgan maydonlar 1,933 mln. gektarni tashkil etib, o'rtacha hosildorlik gektaridan 16,1 tonnani, yalpi hosil 31,131 mln tonnani tashkil etadi. Bir necha yillardan buyon Xitoy (15,823 mln.t), Meksika (2,294 mln.t), Turkiya (2,159 mln.t), Indoneziya (1,726 mln.t) davlatlari qalampir yetishtirish bo'yicha yetakchilik qilmoqda.

Respublikamizda sabzavot ekinlariga bo'lgan talab kuchaymoqda, shuning uchun sabzavot, kartoshka, uzum va poliz mahsulotlarini yetishtirishni 2,3 marta oshirish rejalashirilgan.

Hozirgi kunda jaxonning mo'tadil tabiiy-iqlim sharoitiga ega davlatlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, mavjud sug'oriladigan maydonlardan samarali foydalangan holda mintaqa iqlimidan kelib chiqib, shirin qalampir yetishtirishda samarali agrotexnologiyalarni qo'llab yetishtirish orqali ushbu ekin hosildorligi va yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Dunyoda mo'tadil iqlim sharoitiga ega, uzun iliq kunli Janubiy Yevropa, Markaziy va Janubiy Osiyo, Janubiy Amerika, Avstraliya mintaqalarida joylashgan davlatlari qishloq xo'jaligida takroriy sabzavot ekinlarini ekish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shirin qalampirga bo'lgan talabni to'la qondirish maqsadida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun ushbu ekinni takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish, bunda eng maqbul ekish muddati, o'simlikning oziqlanish maydonini aniqlash, tovarbop va serhosil nav va duragaylarni tanlash borasidagi tadqiqotlar dolzarb bo'lib hisoblanadi.



Tadqiqot metodlari. Dala tajribalarini qo'yish, hisoblashlar va kuzatishlar umumqabul qilingan uslublarda (Metodika polevix i vegetasiyax opitov s xlopchatnikom v usloviyax orosheniya. Tashkent, 1973, 1981; Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Toshkent, 2007) amalga oshiriladi. Barcha agrotexnologik tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va O'zPITI (PCUEAITI) tavsiyalari asosida bajariladi. Olingan natijalarga matematik-statistik ishlov berish B.A.Dospexov (1985) bo'yicha amalga oshirildi.

Olingan natijalar.

1-jadval. Shirin qalampirning Dar tashkenta navini turli muddatlarda ekib o'stirilganda hosildorlik ko'rsatkichlari, t/ga

T/r	Ekish muddati	Takrorlar bo'yicha hosildorlik				o'rtacha hosildorlik
		I	II	III	IV	
2021 yil						
1.	15.04	31,3	32,9	32,0	30,6	31,7
2.	20.04 (nazorat)	34,7	35,6	39,7	36,4	36,6
3.	25.04	37,3	36,8	41	37,7	38,2
2022 yil						
1.	15.04	31,7	32,1	30,7	31,4	32,6
2.	20.04 (nazorat)	36,7	35,8	38,9	37,0	37,1
3.	25.04	32,4	38,1	46,5	37,8	38,7

Shirin qalampir navlarida muddati bo'yicha olib borilgan tajribamizda tegishli ravishda Dar tashkenta navida 2021 yilgi o'rtacha hosildorlik 15.04 muddatda 31,7 t/ga, 20.04 (nazorat) muddatda 36,6 t/ga, 25.04 muddatda esa 38,2 t/ga eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

2022 yilda o'rtacha hosildorlik 15.04 muddatda 32,6 t/ga, 20.04 (nazorat) muddatda 37,1 t/ga, 25.04 muddatda esa 38,7 t/ga ushbu yilda ham eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

2-jadval. Shirin qalampirning Lastochka navini turli muddatlarda ekib o'stirilganda hosildorlik ko'rsatkichlari, t/ga

T/r	Ekish muddati	Takrorlar bo'yicha hosildorlik				o'rtacha hosildorlik
		I	II	III	IV	
2021 yil						
1.	15.04	21,2	22,5	21,9	25,2	22,7
2.	20.04 (nazorat)	23,7	22,8	26	23,9	24,1
3.	25.04	27,4	26,7	30,2	26,1	27,6
2022 yil						
1.	15.04	21,4	22,1	25,6	20,9	22,5
2.	20.04 (nazorat)	23,9	22,7	27,7	24,1	24,6
3.	25.04	26,4	25,7	29,2	26,7	27,0

Shirin qalampir navlarida muddati bo'yicha olib borilgan tajribamizda tegishli ravishda Lastochka navida 2021 yilgi o'rtacha hosildorlik 15.04 muddatda 22,7 t/ga, 20.04 (nazorat) muddatda 24,1 t/ga, 25.04 muddatda esa 27,6 t/ga eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

2022 yilda o'rtacha hosildorlik 15.04 muddatda 22,5 t/ga, 20.04 (nazorat) muddatda 24,6 t/ga, 25.04 muddatda esa 27,0 t/ga ushbu yilda ham eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.



Xulosa. Xulosa qilib aytganda Zarafshon vodiysi sharoitida sug'oriladigan yerlarda Shirin qalampirning Dar tashkenta va Lastochka navlarining eng maqbul muddatda sifatli va yuqori hosil olishni ta'minlashi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Butun Jaxon FAO tashkilotining 2017-2018 yilgi ma'lumotlari.
2. O'zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestri. 2020. – b. 33.
3. Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopyediyasi", 2002. –B.181-185.
4. Ostonaqulov T.E., Zuyev V.I., Qodirxo'jayev O.Q. Kitob. Mevachilik va Sabzavotchilik, Toshkent 2018. b-417-419.